

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasaliş modelları.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili... 90	
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'ning bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремнологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алмишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO‘K: 811.511.1’373:81’42+81’276.3

GENDER LEKSIK BIRLIKLARINING LINGVOMADANIY KO‘RINISHLARI**LINGUOCULTURAL ASPECTS OF GENDER LEXICON****ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ГЕНДЕРНЫХ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ****Abdullayeva Nargiza Axmadjonovna** 

Namangan davlat universiteti Ingliz tili kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada asosan badiiy asarlarda madaniyat belgilarining gender xususiyatlariga ega bo‘lgan leksik birliklar orqali ifodalanishi, lingvomadaniy makonda erkak va ayol munosabatlarining gender leksikasi bilan faollashuvi, shuningdek o‘zbek va ingliz badiiy asarlarida oiladagi er va xotinning o‘zaro murojaatlaridagi leksemalarning qo‘llanishiga amaliy tahlillar bilan atroflicha to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, xalq madaniyati belgisi xisoblangan maqol, matal hamda idiomalarning lingvomadaniy faollashuvida gender leksik birliklarining o‘rni haqida ham fikrlar bayon qilingan.

Abstract

This article mainly focuses on the expression of cultural features in fiction through lexical units with gender characteristics, the representation of male and female relationships in the linguocultural space using gendered lexicon, as well as a practical analysis of the use of lexemes in forms of address between husband and wife in Uzbek and English fiction. It also explores the role of gender lexical units in the linguocultural activation of proverbs, sayings, and idioms, which are considered significant elements of folk culture.

Аннотация

В данной статье основное внимание уделено выражению культурных признаков в художественных произведениях через лексические единицы с гендерными особенностями, активизации гендерной лексики в лингвокультурном пространстве при описании взаимоотношений между мужчинами и женщинами, а также анализу употребления лексем в обращениях между супругами в узбекских и английских художественных произведениях. Кроме того, изложены мнения о роли гендерных лексических единиц в лингвокультурной активизации пословиц, поговорок и идиом, считающихся элементами народной культуры.

Kalit so‘zlar: *lingvomadaniyatshunoslik, gender leksikasi, lingvokulterema, milliy xos so‘zlar, erkak va ayol muloqotidagi murojaat leksemalar, frazeologik birliklar, gender komponentli leksika, gendrologik idiomalar.*

Key words: *linguistics, gender lexicon, linguoculterema, national specific words, referential lexemes in male and female communication, phraseological units, gender-component lexicon, gendrological idioms.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, гендерная лексика, лингвокультема, национально специфические слова, лексемы обращения в диалоге между мужчиной и женщиной, фразеологические единицы, лексика с гендерным компонентом, гendрологические идиомы.*

KIRISH

Xalq madaniyati lisoniy ko‘rinishini ifodalash lingvomadaniyatshunoslikning asosiy vazifasi hisoblanadi. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatning tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko‘rinishida, ya’ni so‘zlar vositasida ifoda etadi.[1] Lingvistik til birliklari lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan, lingvokulterema, milliy xos so‘zlar, frazeologizmlar hamda realiya tushunchalarida o‘z aksini topadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Lingvomadaniy makonda erkak va ayol munosabatlarining gender leksikasi bilan faollashuvi asosan badiiy asarlar obrazlari talqinida hamda ikki jins vakillari o‘rtasidagi tengsizlik munosabatlarida kuzatiladi. Oilaning asosi xisoblangan er va xotinning o‘zaro muloqoti jarayonida ham gender leksik birliklari faollashuvi alohida ahamiyatga ega. Masalan, oiladagi ota-onaning o‘zaro murojaat birliklarini millatning til madaniyat belgisi sifatida olish mumkin. Ayollar tabiatan nafasat sohibalari bo‘lganligi sababli, suhbat jarayonida ham jozibador va xilma-xil leksemalarni, shaxsiy munosabat ifodalovchi so‘zlarni, ijobiy bo‘yoqdor leksik birliklarni ko‘proq qo‘llaydilar. Suhbat predmeti biroz bo‘rttirilgan holda bo‘ladi. Emotsional holatlar- hayratlanish, sevinish,

ADABIYOTSHUNOSLIK

qo'rqish, nafratlanish, xafa bo'lish kabi ruhiy-fiziologik jarayonlarni ular nutqlarida uchratish tabiiy. Bundan kelib chiqqan holda, murojaat uchun qo'llanuvchi gender leksik birliklari erkak va ayol nutqida qo'llaniladigan murojaat shakllari hamda erkak va ayolga nisbatan qo'llaniladigan murojaat shakllari tarzida uchraydi.[2] O'zbek oilasida ayol kishi turmush o'rtog'iga to'g'ridan-to'g'ri ismini aytib murojaat qilishi milliy, madaniy va diniy urf odatlarga zid hisoblanadi. Shu sababli, murojaatning og'zaki shaklida ayollar turmush o'rtoqlariga mavxum leksik birliklardan, jumladan "ey, hoy, siz" kabi leksemalar bilan, aniq semantik ma'noga ega bo'lgan "dadas, otasi, bobosi" kabi uchunchi shaxs birlikdagi genderlik ifodalovchilar orqali va ba'zan o'z farzandlari ismlari bilan chaqirish usulida murojaat qiladilar. Murojaat maqsadiga ko'ra ba'zi zamonaviy oilalarda "azizim, begim, jonim, yagonam" kabi his tuyg'uni kuchaytiruvchi leksemalardan ham foydalaniladi. O'zbek madaniyatidan farqli o'laroq, ingliz oilasidagi ikki jins vakillari o'zaro yuzma-yuz muloqotlarida er va xotin ismlarini, erkalatish ma'nosidagi qisqartma gender antroponimlarini hamda "my dear, my sweetheart" kabi murojaat leksemalarini qo'llaydilar. Bundan tashqari, ba'zi ingliz adabiyotidan qilingan tarjimalarda asliyat tili vakillarining madaniy qiyofalarini shakllantirish uchun ular nutqidagi "you" grammatik leksemasi talqinida hurmat semasidagi "siz" olmoshi o'rniga "sen" ikkinchi shaxs birlik uchun qo'llanuvchi olmoshi va gap kesimining unga moslashuvi kuzatiladi. Fikrlarimizni tahliliy misollar bilan davom ettiramiz. "Eri masjid qurdira boshlaganida u biram quvondi, biram quvondi..... Bir kuni Asadbek nimadir deganida Manzura "Xudo xohlasa, adasi", dedi. Asadbekning kayfiyati chatoq edi, bu javobdan jahli chiqib: "Huda-behudaga Xudoni o'rtaqa solaverma. Xudoning sendan boshqa tashvishi yo'qmi?" deb jerkidi. Manzura qo'rqibgina: "Unaqa demang, adasi, Xudodan qo'rqing", deb baloga qoldi".[3] Ingliz adabiyotida bu jarayon shunday beriladi. "Just us two, Frank," she begged, squeezing his arm. "Like an elopement. I always did want to run away and be married! Please, sweetheart, just for me!"[4] "-Sen bilan adi-badi aytishib o'tirishga sira ham toqatim yo'q! -Xotini shunday deya stol yonidan ketmoqchi bo'lib qo'zg'alib qoldi. -Menga qara, keyingi paytlarda senga bir nima bo'lganmi o'zi?- Gerstvud ham keskinroq gapirib o'rnidan qo'zg'olgandi xotini beixtiyor to'xtab qoldi. -Nahotki odamga o'xshab gaplashib bo'lmaydi sen bilan?- Men bilan gaplashsa bo'ladi,- dedi missis... Yo'qsa biz sensiz ketaveramiz."[5] Tahliliy misollardan shuni anglash mumkinki, oiladagi er-xotinning o'zaro genderlik ifodalovchi murojaat leksemalari har ikki tilda ham badiiy asarlarga bevosita ko'chib o'tadi va millatga hos madaniyat belgisi sifatida ingliz adabiyotida ayollar dominantasi aks etsa, o'zbek adabiyotida bu holat ayollar nutqida yostiqdoshiga nisbatan hurmat, sabrlik, bir-birini o'zaro tushunishga intilish strategiyalarida namoyon bo'ladi.[6] Har ikki millat adabiy jarayonida er-xotin murojaat leksemalari muallif va kitobxon o'rtasidagi madaniyatlararo muloqot vazifasini bajaradi.

Turli kasb-hunarga oid so'z va so'z birikmalari ham xalq tili negizida shakllanib, lingvomadaniyatshunoslik obyekti sifatida qo'llaniladi. Masalan, bir millatga mansub hunarmand ishlatadigan atama boshqa bir millatda uchramaydi. Shu boisdan, kasb-hunar leksemalari ikki hissa chegaralangan leksikani tashkil etadi va bunday so'zlar badiiy asar tilida ma'lum uslubiy maqsadlarda ishlatiladi. Ba'zan bir epizod yoritish maqsadida foydalanilsa, boshqa holatlarda ular uslubiy jihatdan qo'llanishi mumkin.[7] Va har ikki vaziyatda ham ifoda vositasi sifatida lingvomadaniy ahamiyatga ega. Ushbu fikrlarimizga tayangan holda gender komponentli leksik birliklar qatoriga ingliz va o'zbek milliy kasb-hunar leksemalarini ham kiritish lozim deb topdik. Jumladan, o'zbek milliy kashta tikish hunari bilan shug'ullanuvchi ayollar uchun "kashtach", milliy oyoq kiyim hisoblangan maxsi tikish bilan mashg'ul bo'lgan erkaklar uchun "maxsido'z" kabi kasb-hunarga oid so'zlarni gender komponentli birliklar qatoriga qo'shish mumkin. Quyida badiiy asarlarda qo'llanilgan millatga xos kasb-hunar leksemalarini misollar tahlili ostida ko'rib chiqamiz. "The other members of the household, viz., John and his wife, Leah the housemaid, and Sophie the French nurse, were decent people; but in no respect remarkable..."[8] Muallifning ushbu kichik bir tasviriy ifodasida "household, housemaid, nurse" kabi insonlarning kasbiy yumushlari orqali paydo bo'lgan gender lug'aviy birliklariga duch kelamiz. Ingliz madaniyatida aslzoda oilalarga yollangan xizmatkorlarni bildiruvchi bu leksemalarni kasbiy xos so'zlar qatoriga qo'shishimiz tayin. Ma'no jihatidan "household" so'zi neytral gender xoslanishiga ega bo'lsa, "housemaid, nurse" leksik birliklari faqat ayollar uchun mos kasbni bildiradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ma'lum bir tilning xazinasini sifatida frazeologizmlarni keltirish lozim. Negaki, frazeologiya xalqning tarixini, madaniyati va o'ziga xosligini ko'rsatib, asosan millatning urf-odatlarini, an'analarini o'zida aks ettiradi. Frazeologik birliklar mavjud bo'lmagan birorta til yo'q va ular nutqqa tayyor xolda kirib kelishi, leksik va semantik jihatdan o'zaro mos kelmasligi, ma'no jihatdan turg'unligi bilan tilning boshqa birliklaridan farq qiladi.[9] Badiiy asarlarda frazeologik birliklar sifatida maqol, matal hamda idiomalardan keng foydalaniladi. Maqollar har bir xalq madaniyatining ko'zgusi hisoblanib, ularning zamirida xalqning urf-odati, udumi, dono qadriyatlarini, millat dunyoqarashi va milliy manzarasini ochib beruvchi ma'no va mazmun yotadi. Matal esa narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng istifoda etiladigan nutqiy tarkibdir. Matal so'zlovchilarning o'z nutqi mazmuniga munosabatini bildiradi, lekin maqoldan farqli ravishda fikrni tugal bayon etmaydi, aksincha unga ishora qiladi.[10] Idiomalar ham frazeologik birliklar qatorida faol qo'llanilib, ma'lum bir tilga xos bo'lgan, ayni shu tilda o'zlashib ketgan va boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydigan nutqiy birliklardir.[11] Ingliz va o'zbek adabiyoti asarlariga badiiy sayqal berish va pragmatik ta'sirni kuchaytirish maqsadida juda ko'p maqol, matal hamda idiomalardan foydalaniladi. Madaniyat belgisi sifatida bu kabi frazeologik birliklarda ham genderologik xususiyatlarni uchratish mumkin.

Maqollarda asosan gender stereotiplari o'z aksini topadi. Maqollar hech qachon o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Kundalik hayotda uchraydigan voqea hodisalar natijasida aytilgan ibratli so'zlar yillar osha avlodlardan avlodga og'zaki tarzda o'tib shu xalqqa xos xususiyatlarni aks ettiradi.[12] G.Madaminova "Oxford Concise Dictionary of Proverbs" manbasida jami 135ta ingliz maqollari ayol va erkak jins vakillariga aolqador ekanligini ta'kidlaydi va har ikki til maqollari misolida gender komponentli leksik birliklar erkak va ayol o'rtasidagi tafovutlar zamirida paydo bo'lganligini o'qitirib o'tadi.[13] "A man is as old as he feels, and a woman as old as she looks" ingliz maqolidagi hamda "Yigit chiroyi - arg'umog'i, kelin chiroyi - chaqalog'i" o'zbek maqolidagi "man, woman", "yigit, kelin" kabi gender komponentli leksik birliklar nazariy fikrlarimizga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lum tilga xos bo'lgan nutqiy birliklar xisoblangan idiomalarga kelsak, ingliz madaniyatida gender komponentli birliklarni o'zida saqlagan idiomalardan ham og'zaki ham yozma nutqda keng qo'llaniladi. Frazeologik birliklarning badiiy asarda ifodalanishiga bir nazar tashlaymiz:

"-A girl? That's better still. Boys are such nuisances. Don't ever have any more boys, Scarlett. It was on the tip of her tongue to reply tartly that she never intended to have any more babies, boys or girls" [4.637] Uzoq vaqtdan beri ko'rishmay yurgan Skarlett va Batler o'rtasidagi suhbatni bayon qiluvchi ushbu parchada, faqat ayollargagina xos bo'lgan, muloqot jarayonida o'zining qarshi fikrini suhbatdoshga bildirish istagini ifodalovchi "on the tip of her tongue to reply tartly" idiomatik leksikasidan foydalanilgan. Amerika qo'shma shtatlari janubiy o'lkalarida yashovchi ayollardan farqli ravishda shaddod, uddaburro, so'zamol bo'lgan Skarlettning nutq birligini bu kabi idioma bilan berilishida lingvomadaniy belgilarni ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Yuqoridagi nazariy hamda amaliy fikrlarimizdan ko'rinib turibdiki, badiiy asarlarda ayollar va erkaklarning tasviriyligi, ularning emotsional bo'yoqdorligi, ikki jinsning lingvistik nutq shakllari ifodasida gender leksikasi tanloviga turli milliy-madaniy omillar, ya'ni har bir shaxsning etnik kelib chiqishi, kasbi-kori, oilaviy munosabatlari, diniy qarashlari, qadriyatlar va urf odatlar bevosita ta'sir qiladi.[14] Va bu jarayonda maqol, matal, idioma kabi frazeologik birliklar, lingvokulturema, realiya hamda kasbiy xos so'zlar genderlik faollashuvida lingvistik tasvir vositalari vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahmanova.D.A. Tilshunoslikda lingvokulturologiyaning o'rganilishi// Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS),2022.-B.239
2. Ko'chimova. P. Erkak va ayol nutqida murojaat so'zlar semantikasi// International scientific-practical conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages", 2022.
3. Malik.Tohir. Shaytanat: Qissa.K.2.-T.: Sharq,1995.-B.38-39
4. Mitchell.M. Gone with the wind. -USA: Warner books edition,1993.-P.868
5. Drayzer.T. Baxtiqaro Kerri. Ruschadan Erkin Nosirov tarjimasini. -T.: "Yangi nashr", 2019.-B.203
6. Ismoilova.Sh. Hushmuomalalik kategoriyasi va hurmat konseptining ingliz va o'zbek tillaridagi gender xususiyatlari// Science and innovation international scientific journal Volume 1. Issue 6, 2022.-B.988
7. Tursunov S. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 1992, -B.118.

ADABIYOTSHUNOSLIK

8. Bronte. Ch. Jane Eyre:- Free eBooks at Planet eBook.com.- P.168
9. Maksetova. Z. T. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o'rganilishi va ularning tasnifi//Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2. Issue 5, 2022.-B.184
10. G'.Tarjima nazariyasi asoslari.–Toshkent: O'qituvchi, 1983.-B.117
11. Краткий словарь иностранных слов. М., 1950, -С.126
12. Yusupova.G. Muloqot jarayonida genderologik xususiyatlarining aks etishi// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.-B.513
13. Madaminova. G. Conceptual gender analysis of English and Uzbek paremias// Academic Excellence on Science and Research. Journal of Advanced Research and Stability, 2022.-B.180-183
14. Abdullayeva N. Gender lexicon as the object of study in lingviculture //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2024. – Т. 5. – №. 08. – С. 21-28.